

Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-iyun

dastlabki ma'lumot

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

IV. METAMA'LUMOTLAR

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 206 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 202 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 098,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,6% ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 213,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 885,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 325,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola:[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 1 065 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 062 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 267,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 998,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9%ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 91,8 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola:[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega Guliston sh. (1,6 m.) va Sirdaryo (14,6m.), Sardoba (6,3m.), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola:[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 605 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 604 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 923,1 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul: Xizmatlar va savdo soxasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A.Qurbanov Tel: +672367000 (2040)	Ijrochi: A.Qurbanov Tel: +672367000 (2040) e-pochta: info@sirstat.uz	Manzil: Guliston sh., Birlashgan ko'chasi, 62
----------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------